



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiye" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

Zamonaviy oliy ta'limda integratsiyalashgan yondashuv kompetensiyaviy ta'lim talablariga ham mos keladi. Talaba nafaqat grafik qoidalarni biladi, balki ularni raqamli muhitda qo'llash, tahlil qilish va optimallashtirish ko'nikmalariga ham ega bo'ladi. Bu esa muhandislik grafikasi fanini AutoCAD asosida o'qitishda ortogonal va yetishmovchi proyeksiyalarni aniqlash texnologiyalarini takomillashtirish uchun mustahkam metodik asos yaratadi. Kompyuter grafikasi va an'anaviy chizmachilik integratsiyasi muhandislik grafikasi fanining zamonaviy rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. Ushbu integratsiya talabalarning fazoviy tafakkurini chuqurlashtiradi, grafik kompetensiyasini oshiradi va ularni raqamli muhandislik faoliyatiga tayyorlaydi. Aynan shu yondashuv AutoCAD muhitida yetishmovchi proyeksiyalarni o'qitish texnologiyalarini samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi.

Zamonaviy muhandislik ta'limida kompyuter grafikasi va an'anaviy chizmachilikni o'zaro integratsiyalash masalasi muhim didaktik va metodik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy chizmachilik asrlar davomida muhandislik tafakkurining asosiy tayanchi bo'lib kelgan bo'lsa, kompyuter grafikasi esa raqamli texnologiyalar rivoji natijasida ushbu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ularning integratsiyasi nafaqat o'quv mazmunini boyitadi, balki talabalarning fazoviy tafakkuri, grafik madaniyati va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik omilga aylanadi. Chizmachilikning asosiy ustunligi grafik tasvirlashning mantiqiy ketma-ketligini, aniqlik va intizomni shakllantirishidir. Qo'lda bajariladigan chizmalar orqali talabalar geometrik shakllarning tuzilishini chuqur anglaydi, proyeksiyalash qonuniyatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtiradi hamda fazoviy obyektlarni tekislikda tasvirlash ko'nikmasini hosil qiladi. Ayniqsa, ortogonal proyeksiyalarni chizishda bajariladigan amaliy mashqlar yetishmovchi proyeksiyalarni aniqlashda asosiy tayanch bilim vazifasini bajaradi. Shu bois an'anaviy chizmachilikni butunlay inkor etish emas, balki uni zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A.X. Muhandislik grafikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. 77-b.
2. Qodirov S.Q., Islomov B.R. Chizmachilik va kompyuter grafikasi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 92-b.
3. Bertoline G.R., Wiebe E.N., Miller C.L. Technical Graphics Communication. – New York: McGraw-Hill, 2016.
4. Zeid I., Sivasubramaniam J. CAD/CAM Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 2015.
5. Shokirov M.M. Muhandislik ta'limida kompyuter texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. 102-b.
6. AutoDesk Inc. AutoCAD User Guide. – San Rafael, 2022.
7. Аширов А.А. Инженерная графика. – Москва: Высшая школа, 2017. 62-с.

UO'K 21474

RANGTASVIR DARSLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA VIZUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://zenodo.org/records/18754597>

Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o'g'li
G'ulomova Mo'minaxon Nuriddin qizi
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolamda asosan rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Grafik dasturlar, multimedia taqdimotlar,

raqamli reproduksiyalar hamda interaktiv vizual vositalarning rangtasvir mashg'ulotlaridagi samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rang, kompozitsiya va shaklni o'rganish jarayonidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: rangtasvir, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, vizual texnologiyalar, raqamli ta'lim, ijodiy tafakkur, multimedia, grafik dasturlar.

Аннотация. В статье освещается педагогическое и методическое значение использования информационно-коммуникационных и визуальных технологий на занятиях по живописи. В условиях современного образования проанализированы возможности развития художественного мышления, эстетического вкуса и творческих способностей обучающихся с помощью цифровых средств. Обоснована эффективность графических программ, мультимедийных презентаций, цифровых репродукций и интерактивных визуальных средств в процессе обучения живописи. Также с научно-теоретической точки зрения раскрыта роль информационно-коммуникационных технологий в изучении цвета, композиции и формы.

Ключевые слова: живопись, информационно-коммуникационные технологии, визуальные технологии, цифровое образование, творческое мышление, мультимедиа, графические программы.

Abstract. This article mainly highlights the pedagogical and methodological significance of using information and communication as well as visual technologies in painting classes. In the context of modern education, the possibilities of developing students' artistic thinking, aesthetic taste, and creative abilities through digital tools are analyzed. The effectiveness of graphic software, multimedia presentations, digital reproductions, and interactive visual tools in painting lessons is substantiated. The study also reveals, from a scientific and theoretical perspective, the role of information and communication technologies in the process of studying color, composition, and form.

Keywords: painting, information and communication technologies, visual technologies, digital education, creative thinking, multimedia, graphic software.

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari barcha fanlar qatori tasviriy san'at, xususan rangtasvir fanini o'qitish mazmuni va metodikasini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borgan bo'lib, ta'lim jarayonida ularning samarali qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijodiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, vizual idrok yetakchi ahamiyat kasb etadigan rangtasvir darslarida raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rangtasvir fanining asosiy vazifasi o'quvchilarda rang, shakl, kompozitsiya, yorug'lik va soya qonuniyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish hamda badiiy obraz yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. An'anaviy ta'lim jarayonida bu vazifalar asosan qog'oz, bo'yoq va tabiiy ko'rgazmali vositalar yordamida amalga oshirilgan. Biroq hozirgi globallashuv va raqamli muhit sharoitida mazkur yondashuv o'quvchilarning ehtiyojlari va zamon talablarini to'liq qondira olmayapti. Shu bois rangtasvir darslarini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda [1].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tasavvurini boyitadi va ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Rangtasvir darslarida multimedia taqdimotlar, grafik dasturlar, raqamli reproduksiyalar, interaktiv platformalar va vizual animatsiyalardan foydalanish o'quvchilarga ranglarning uyg'unligi, kompozitsion yechimlar hamda badiiy uslublarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, mashhur rassomlar asarlarini yuqori aniqlikdagi raqamli formatda tahlil qilish, rang va shakl o'zgarishlarini vizual tarzda kuzatish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rangtasvir ta'limiga tatbiq etilishi nafaqat bilim berish jarayonini takomillashtiradi, balki o'quvchilarning estetik didi va badiiy madaniyatini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Grafik dasturlar yordamida o'quvchilar turli rang kombinatsiyalarini sinab ko'rish, kompozitsiyani o'zgartirish va xatolarni tezkor tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa an'anaviy rangtasvir mashg'ulotlarida ko'p vaqt talab qiladigan jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi [2].

Shu bilan birga, rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish an'anaviy metodlarni inkor etmaydi, balki ularni to'ldiradi va boyitadi. An'anaviy bo'yoqlar bilan ishlash orqali o'quvchilar rangni sezish va material bilan muloqot qilish tajribasini orttirsa, raqamli vositalar bu bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish imkonini yaratadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarda rangtasvirga nisbatan barqaror qiziqish va ijodiy mustaqillikni shakllantiradi [3].

Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish masalasi so'nggi yillarda pedagogika, san'atshunoslik va raqamli ta'lim yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, AKT vositalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning ijodiy faolligi, vizual tafakkuri va estetik didini rivojlantirishda samarali pedagogik omil sifatida baholanmoqda.

Xususan, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida vizual texnologiyalarning o'quv jarayonidagi ahamiyati chuqur yoritilgan. Ularning ishlarida multimedia taqdimotlar, raqamli tasvirlar, interaktiv platformalar va grafik dasturlar yordamida rang, kompozitsiya hamda shaklni o'rganish jarayoni yanada samarali tashkil etilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, san'at ta'limiga oid adabiyotlarda raqamli reproduksiyalar orqali mashhur rassomlar ijodini tahlil qilish o'quvchilarning badiiy tafakkurini boyitishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AKT asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar an'anaviy darslarga nisbatan o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tahlil qilish va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan. Rangtasvir faniga oid metodik adabiyotlarda esa grafik dasturlar yordamida rang uyg'unligi va kompozitsion yechimlarni modellashtirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi [4].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotlarda rangtasvir darslarida AKTdan foydalanish masalasi umumiy tarzda yoritilgan bo'lib, ularning amaliy qo'llanilishi va metodik jihatlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotda rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik asoslarini aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot usullariga tayanadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik, psixologik va san'atshunoslik adabiyotlarini tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali rangtasvir ta'limida AKT va vizual texnologiyalarning o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

Empirik metodlar doirasida kuzatish, suhbat va pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Rangtasvir mashg'ulotlarida multimedia taqdimotlar, grafik dasturlar va raqamli vizual vositalardan foydalanish jarayoni kuzatilib, ularning o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga

ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar an'anaviy darslar bilan taqqoslanib, AKT asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi aniqlandi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida rangtasvir darslarida an'anaviy va raqamli metodlarning integratsiyasi ko'rib chiqildi. Bu yondashuv o'quvchilarning rangtasvirga oid bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini berdi.

Mazkur tadqiqot doirasida rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilindi. O'tkazilgan kuzatuvlar va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning ijodiy faolligini rag'batlantiradi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, multimedia taqdimotlar va raqamli reproduksiyalar yordamida o'tilgan mavzular o'quvchilar tomonidan an'anaviy usullarga nisbatan tezroq va chuqurroq o'zlashtirilgan. Ayniqsa, ranglar uyg'unligi, yorug'lik va soya munosabatlari hamda kompozitsion yechimlarni tushuntirishda vizual animatsiyalar va grafik modellashtirish vositalari yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Bu holat o'quvchilarning mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham puxta egallashiga imkon yaratdi.

Grafik dasturlar orqali bajarilgan amaliy mashg'ulotlar natijasida o'quvchilarning rang tanlash, kompozitsiya tuzish va badiiy obraz yaratish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. O'quvchilar rangtasvir jarayonida xatolarni tezkor aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi [5]. Muhokama davomida ma'lum bo'ldiki, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy tajribalarini kengaytirish bilan birga, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini ham oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rangtasvir darslarida AKTdan foydalanish o'quvchilarning estetik didini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Mashhur rassomlar asarlarini yuqori aniqlikdagi raqamli formatda tahlil qilish orqali o'quvchilarda badiiy tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlandi. Bu esa ularning san'atga bo'lgan munosabatini ongli va tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qildi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, an'anaviy va raqamli metodlarning integratsiyasi rangtasvir ta'limida eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Faqat raqamli texnologiyalarga tayanish rangni real muhitda sezish tajribasini cheklashi mumkin, biroq ularni an'anaviy bo'yoqlar bilan ishlash jarayoni bilan uyg'unlashtirish yuqori pedagogik samaraga olib keladi. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarda barqaror ijodiy qiziqish va badiiy mustaqillikni shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, estetik madaniyati hamda badiiy bilimlarini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi. Olingan xulosalar rangtasvir fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish va zamonaviy ta'lim talablariga mos o'quv jarayonini tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy raqamli vositalar, jumladan grafik dasturlar, multimedia taqdimotlar, raqamli reproduksiyalar va interaktiv platformalar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, estetik didi va badiiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Rangtasvir darslarida AKT va vizual texnologiyalarni joriy etish an'anaviy metodlarni inkor etmaydi, balki ularni boyitadi va ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi. O'quvchilar grafik dasturlar yordamida rang uyg'unligini sinash, kompozitsion yechimlarni modellashtirish va xatolarni tezkor tuzatish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning mustaqil ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli reproduksiyalar orqali mashhur rassomlar

asarlarini tahlil qilish o'quvchilarning badiiy tafakkurini chuqurlashtiradi va san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy va raqamli metodlarni integratsiyalashgan tarzda qo'llash rangtasvir ta'limida eng samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarda barqaror ijodiy qiziqish, mustaqil fikrlash va badiiy mustaqillikni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari rangtasvir fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik muhit yaratish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda rangtasvir darslarida AKTni kengroq va tizimli joriy etish o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N. *Rangtasvir darslarida multimedia vositalaridan foydalanish*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2020. 92-b.
2. Karimov S., Xolmatov B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va badiiy ta'lim. *Pedagogika va san'at jurnali*, 2019. 3(12), 45–52.
3. Salimova L. Raqamli vositalar yordamida rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*, 2021. 6(4), 18–25.
4. Kozlova, T. (2020). Integrating ICT into painting classes: pedagogical approaches and effectiveness. *International Journal of Education and Technology*, 5(2), 55–63.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Rangtasvir fanini o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2022.

UO'K: 7.071.2:37.013.73:378

FARMASEVTIKA ISHI YO'NALISHIDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

<https://zenodo.org/records/18754608>

Mamatisaqova Gulchexra Alimjanovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirish masalalari hamda bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Farmasevtika ta'limida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik va metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo davlatlarida farmasevtika mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning o'рни va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari milliy farmasevtika ta'limini takomillashtirishda xorij tajribasidan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *farmasevtika ishi, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalar, professional kompetensiya, farmasevtika ta'limi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы развития компетентностно-ориентированного образования в фармацевтической сфере и опыт развитых зарубежных стран в этой области. Подчеркиваются педагогические и методологические аспекты формирования современных компетенций в фармацевтическом образовании, организация образовательного процесса на основе инновационных подходов и развитие практических навыков. Также рассматривается роль и значение компетентностно-ориентированного подхода в подготовке специалистов фармацевтической отрасли в Европейском Союзе, США и странах Азии. Результаты исследования позволяют определить возможности эффективного использования зарубежного опыта для совершенствования национального фармацевтического образования.*

Ключевые слова: *работа в фармацевтической отрасли, компетентностно-ориентированное образование, инновационные технологии, профессиональная компетентность, фармацевтическое образование.*

